

## **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING MATEMATIK BILIMLARINI O'QUV JARAYONIDA ANIQLASH USULLARI**

*Toliboyeva Xurshida*

*Samarqand viloyati Qo'shrabot tumani 26-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik bilimlarini o'quv jarayonida tekshirishning ahamiyati va tekshirish usullari xususidagi fikrlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** matematik bilim, to'g'ri yechim, aniqlik, to'liqlik, ob'yektivlik, onglilik, mustahkamlilik.

**Аннотация:** в данной статье изложены мнения о важности проверки математических знаний учащихся начальных классов в процессе обучения и методах проверки.

**Ключевые слова:** математическое знание, правильное решение, точность, полнота, объективность, осведомленность, робастность.

**Abstract:** this article describes the importance of checking the mathematical knowledge of elementary school students in the educational process and the methods of verification.

**Keywords:** mathematical knowledge, correct solution, accuracy, completeness, objectivity, awareness, robustness.

### **KIRISH**

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan ta'lim tizimida, boshlang'ich ta'limda matematika fanlari bolalarning har tomonlama rivojlanishida muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda. Hozirgi vaqtda ilimiy-texnika taraqqiyoti asrida matematika muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun keyingi o'n yilliklarda maktab matematikasini bir necha marta dasturiga o'zgarishlar kiritildi. yangi DTS va dastur bo'yicha matematikadan yangi metodik sistema ishlab chiqildi. Boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitishda o'quvchilarning misol va masalalarni to'g'ri yechilganligini tekshirish

muhim ahamiyatga ega. Matematikadan bilimlarni tekshirishda faqat dastur talabiga yarasha u

yoki bu bilimlarning o'quvchilar ongida bo'lishligini hisobga olmasdan, balki sifatini xarakterlaydigan quyidagilarni ham e'tiborga olish kerak:

1. O'quvchilar mulohazasi va tushunchalarning o'qitilayotgan ob'yektga mos kelishi;
2. Aniqlik, ya'ni detallarning to'g'riligi;
3. To'liqlik, ya'ni ob'yekt va jarayonlarga taalluqli mulohaza va tushunchalarning yetarli va to'liq bo'lishi;
4. Ob'yekt jarayonidagi muhim belgilarni, tushuncha va mulohazalarda aks etishi;
5. Onglilik, ya'ni tushunchalar orasidagi bog'lanishni tushuna olish va mulohazalarni asoslay olishi;
6. mustahkamlik, ya'ni o'quvchilar xotirasida uzoq saqlab qolish.

O'quvchilar bilimni tekshirish va baholash didaktikada barcha fanlar uchun umumiy qilib berilgan. Bilimlarni tekshirish va baholash maqsadi o'qituvchi uchun o'quv materialini o'quvchilarning o'zlashtirish sifatini, dasturdagi bilimlarni egallash darajasini, malaka va ko'nikmalarni hosil qilinganligini aniqlashdan iboratdir. Bu orqali o'qituvchi o'quvchilarning o'quv faoliyatini o'quvchilar matematikadan o'zlashtirishi majburiy bo'lgan bilimlar hajmini o'quv dasturi bilan solishtiradi. Shu hajmni o'zlashtirish va mustaqil masalalar yechishga erishish uchun lozim bo'lgan bilimlar hosil bo'ldimi yoki yo'qmi ekanligini doimo nazorat qilib boradi.

## **ASOSIY QISM**

Yangi masalalarni yechishda bilimlarni amaliyotga qo'llash va o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning matematikadan bilim va malakalarini tekshirishning usullari xilma-xil bo'lib, ular o'quvchilarning og'zaki yoki yozma bayon qilishi, masala yoki misol yechishi, aniq bilimlardan foydalanib chizish, o'lchash, laboratoriya ishlarining bajarilishlari kabilar orqali aniqlanadi. Masalan, o'quvchi ko'paytmanni ko'paytirishdan hosil bo'lishin bilsada, "ko'payuvchi 15, ko'paytuvchi 6, ko'paytmanni toping" – degan masalani yechishda qiynaladi. Shuning uchun o'quvchining har bir javobida yuqorida

aytilgan bosqichlarni bajarish zarur. O‘quvchilar bilimini og‘zaki aniqlash: O‘quvchilar bilimini tekshirishning yana bir usuli o‘quvchilardan individual so‘rash hisoblanadi. Bu so‘rash uncha katta bo‘lmagan og‘zaki hisoblash bilan bog‘langan bo‘lishi kerak. Bunday so‘rashni o‘qituvchi odatda uy vazifasini tekshirish bilan bog‘laydi. Og‘zaki hisoblash malakalarini tekshirish maqsadida sinfnig barcha o‘quvchilari bilan misol va masalalar yechishda qo‘llaniladi. O‘qituvchi misolni aytadi, o‘quvchilar og‘zaki yechib, daftaridagi taalluqli raqam to‘g‘risiga faqat javoblarini yozib qo‘yadilar. Bunday topshiriqni har bir darsda 7–10 minut davomida o‘tkazish maqsadga muvofiq.

*O‘quvchilar bilimini yozma ish orqali aniqlash:*

Bilimlarni to‘laroq tekshirish uchun dasturning o‘tilgan bo‘limi bo‘yicha yozma ishlar olinadi. Masalan, IV sinfda ko‘p xonali sonlarni raqamlash haqida o‘quvchilar bilimini tekshirishdagi yozma ishga quyidagi savollarni qo‘yish mumkin. Savol va misollar. Nima tekshiriladi.

1. Yuz ming o‘n mingdan necha marta katta? Turli xona birliklari orasidagi munosabat.
2. Sakkiz mingda nechta yuz bor?
3. 542000 da nechta o‘n ming bor?
4. 267805 dagi eng yuqori xonani toping? Xonalar bo‘yicha sinflarning raqamini bilish.
5. Ikkinchi sinf birligini toping?
6. Turli xona birliklarini, ahamiyatini 3 raqami ifodalaydigan ikkita son yozing.
7. Raqamlar o‘rnining ahamiyati bilish. 7, 8 va 9 raqamlari yordamida ikkita uch xonali son yozing. Raqam va son orasidagi farqni bilish.
8. 377245 sonni qo‘shiluvchi razryadlarning yig‘indisiga almashtiring. Sonni qo‘shiluvchilarga almashtirish malakasi.
9.  $999+2$ ;  $10000-1$ ;  $9998+3$ ;  $10000-2$  misollarni yeching. raqamlash bilimning arifmetik amallar bajarishga tatbiq qilishni bilish.

## XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni qayd etish lozimki, matematika faniga oid bilimlar uzoq yillik tarixga egadir. Matematika metodikasi haqidagi tushuncha birinchi bo‘lib Shveysariyalik pedagog matematik G.Pestalosing 1803-yilda yozgan “Sonni ko‘rgazmali o‘rganish” asarida bayon qilingan. Boshlang‘ich ta‘lim haqida ulug‘ mutafakkir Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino va boshqalar ta‘lim va tarbiya haqidagi hur fikrlarida boshlang‘ich ta‘lim asoslarini o‘rganish muammolari haqida o‘z davrida ilg‘or g‘oyalarni olg‘a surganlar. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitishning maqsadlari quyidagilar: umumta‘lim maqsadi, tarbiyaviy maqsadi, amaliy maqsadi. Bu maqsadlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bir-birini to‘ldiradi. Ta‘lim maqsadi o‘qituvchidan quyidagilarni talab qiladi.

- a) o‘quvchilarga matematik bilimlar tizimidan, bilim, malaka ko‘nikma berish;
- b) haqiqiy olamni matematik metodlar bilan o‘rganish;
- v) o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqlarini o‘stirishni, uning sifatli bo‘lishini ta‘minlash;
- g) o‘quvchilarga matematikadan shunday bilimlar berishni ta‘minlashi kerakki, bu bilimlar orqali, faol bilish faoliyati orqali, bilim, malaka, ko‘nikmalari ortib borsin.

Tarbiyaviy maqsad. Matematika o‘qitish o‘quvchilarni sabotlilikka, tirishqoqlikka, puxtalikka, o‘z fikri va xulosalarini nazoarat qila olishga, ayniqsa, kuzatish, asosida aytiladigan fikrlarning ravon bo‘lishiga erishishkerak. Miqdorlar orasidagi bog‘lanishni ifodalash uchun matematikada simvollar ishlatiladi. Mana shu matematik til rivojlanishi kerak. O‘qituvchining vazifasi simvolik tilda ifodalangan matematik fikrni ona tiliga ko‘chirishga o‘rgatishdan iborat bo‘lmog‘i kerak. Bilishga intilish, mustaqil ishdan qanoat hosil qilish tuyg‘ularini tarbiyalashi kerak. Matematika fanini o‘qitishning o‘zi o‘quvchilarda diqqat va fikrni to‘play bilishni tarbiyalaydi

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Jumaev M.E, Tadjiyeva Z.G`. Boshlang`ich sinflarda matematika o`qitish metodikasi. Toshkent. “Fan va texnologiyai” 2005 yil.
2. Jumaev M.E, Boshlang`ich sinflarda matematika o`qitish metodikasidan praktikum. Toshkent. “O`qituvchi” 2004 yil.
3. Haydarov M., Hasanboeva O. Pedagogik amaliyotni tashkil etish metodikasi.Toshkent. TDPU, 2003 yil.
4. Bikbaeva N.U, R.I.Sidelnikova,G.A.Adambekova. Boshlang`ich sinflarda matematika o`qitish metodikasi. (O`rta maktab boshlang`ich sinf o`qituvchilari uchun metodik qo`llanma.) Toshkent. “O`qituvchi” 1996 yil.
5. Bikboeva.N.U. Yangiboeva E.Ya. Ikkinchi sinf matematika darsligi. Toshkent. “O`qituvchi” 2005 yil.
6. Bikboeva.N.U. Yangiboeva E.Ya. Uchinchi sinf matematika darsligi. Toshkent. “O`qituvchi” 2005 yil.